O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI HUZURIDAGI KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGI DIREKTORINING

BUYRUG‘I

2025-yil “14” iyul 105a-son Toshkent shahri

Kinematografiya agentligining 2023-yil 27-noyabrdagi 170a-sonli buyrug‘iga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash, Kinematografiya agentligi (keyingi o‘rinlarda Agentlik)ning Xaridlar komissiyasi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Agentlikning 2023-yil 27-noyabrdagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni hamda Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyruqning 1-ilovasi bilan davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangani inobatga olinsin.

2. Yuqoridagi buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Agentlik Xarid komissiyasining tarkibi ilovaga muvofiq qayta tasdiqlansin.

3. Xarid komissiyasi **(A.Xadjayev)** faoliyati nizom asosida, xarid ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholash va tartibga solish hamda davlat xaridlari tanlovi g‘oliblarini raqobatlashuv usullari orqali tanlash mezonlaridan samarali foydalangan holda tashkil etilsin.

4. Ijro intizomi va devonxona bo‘limi **(G‘.Xoshimov)** ushbu buyruqning tegishli ijrochilarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Ushbu buyruqning nazorati direktor o‘rinbosari A.Xadjayev zimmasiga yuklatilsin.

Direktor v.b. **Sh.Rizayev**

Kelishildi:

Direktor o‘rinbosari	A.Xadjayev
Ijro apparati rahbari	N.Musaev
Ishlar boshqaruvchisi	B.Norov
Bosh yuriskonsult	D.Kasimov
Moliya va buxgalteriya bo‘limi boshlig‘i	G.Soatmurodova
Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati xizmati	Ya.Eshonxonov

Kiritdi:

Bosh mutaxassis	A.Axmedov

Kinematografiya agentligining
2025-yil 14 iyuldagi 105a son
buyrug‘iga ilova

Kinematografiya agentligi xarid komissiyasi tarkibi

t/r	Ismi va familiyasi, sharifi	Lavozimi	* Komissiya tarkibidagi vazifasi
1.	Xadjayev Alisher Djurakulovich	Direktor o‘rinbosari	Komissiya raisi
2.	Norov Baxtiyar Shodmonovich	Ishlar boshqaruvchisi-Moliya iqtisod boshqarmasi boshlig‘i	Komissiya raisi o‘rinbosari
3.	Musayev Navro‘z Abduxalilovich	Ijro apparati rahbari	Komissiya a’zosi
4.	Kasimov Davron Xurramovich	Bosh yuriskonsult	Komissiya a’zosi
5.	Eshonxonov Yahyoxon Akbarxonovich	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati xizmati bosh mutaxassisi	Komissiya a’zosi
6.	Ahmedov Alisher Kenjayevich	Bosh mutaxassis	** Komissiya kotibi

** Komissiya a’zolaridan biri lavozimidan ozod qilinsa yoki boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ushbu lavozimga kelgan xodim komissiya a’zosi hisoblanadi.*

*** Komissiya kotibi ovoz berish huquqiga ega emas.*